

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

Raximova Laylo Shokir qizi

GulDPI magistri.

Shukurova U.U.

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19382004>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Turli olimlar va mutafakkirlarning oilaviy qadriyatlar, tarbiya va ma'naviyat haqidagi fikrlari tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik yondashuvlar va metodlar ko'rib chiqiladi. Oila, tarbiya va jamiyat o'rtasidagi muhim munosabatlar, shuningdek, yosh avlodning mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishidagi oilaning roli hamda bu jarayonda mutafakkirlarning hikmatlaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida fikrlar taqdim etiladi.

Ushbu tadqiqot, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, oila, qadriyat, tarbiya, ta'lim, metod, mutaffakir, fikr, g'oya, tinchlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос подготовки молодежи к семейной жизни с научной точки зрения. Анализируются взгляды различных ученых и мыслителей на семейные ценности, воспитание и духовность. В статье также рассматриваются педагогические подходы и методы, которые могут быть использованы при подготовке современной молодежи к семейной жизни. Представлены важные взаимосвязи между семьей, воспитанием и обществом, а также роль семьи в формировании молодого поколения как ответственных граждан и то, как мудрость мыслителей может быть использована в этом процессе. Цель данного исследования – обеспечить связь между наукой и практикой в процессе подготовки молодежи к семейной жизни.

Ключевые слова: молодежь, семья, ценности, воспитание, образование, метод, мыслитель, мысль, идея, мир.

Abstract. This article studies the issue of preparing young people for family life from a scientific point of view. The views of various scientists and thinkers on family values, upbringing and spirituality are analyzed. The article also considers pedagogical approaches and methods that can be used in preparing modern young people for family life. The important relationships between family, upbringing and society are presented, as well as the role of the family in the formation of the younger generation as responsible citizens, and how the wisdom of thinkers can be used in this process. This study is aimed at ensuring the connection between science and practice in the process of preparing young people for family life.

Keywords: youth, family, value, upbringing, education, method, thinker, thought, idea, peace.

Respublikamizda keyingi yillarda yoshlarni oilaga tayyorlashga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yu.P.Azarov, G.M.Hamidova, A.K.Atoev, M.J.Inoyatova, O.To'rayeva, M.Ochilov, J.Yo'ldoshev, M.Quronovlarning ushbu

masalaga oid yozgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiya, ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Psixolog olimlardan M.Sherbayev, V.Karimova, G'.Shoumarov, Sh. Baratovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida oila tarbiyasining psixologik tomonlari kengroq yoritilgan. Faylasuf olimlardan S.Shermuhamedov, M.Xayrullayev, V.Zohidov, I.Mo'minov, J.Tulenov, Q.Xonazarov, E.Yusupov, F.Ismoilovlarning asarlarida va ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxsning shakllanishi, uning ma'naviy-axloqiy kamoloti masalalariga e'tibor qaratilgan. Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermogda.

G'.B.Shoumarov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlaridan birining tahlili nikoh oldi omiliga oid bo'lib, muallif ushbu mezonlar orasidan oilaviy hayotga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mezonlarni ajratib ko'rsatishga harakat qilgan:

O'zbekiston psixologiya fanida oila ijtimoiy psixologiyasi sohasida o'ziga xos ilmiy maktab shakllangan. Bunda, professor V.M.Karimovanning mustaqillik yillarida birinchilardan bo'lib, yoshlarning oilaviy hayot, oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy tasavvurlarning alohida ko'rinishi sifatida o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlariga suyanish mumkinlogini aytib o'tishimiz mumkin. V.M.Karimovanning "Oila ma'rifati" nomli risolasi oilaviy hayot bo'sag'asida turgan yoshlar hamda turmush qurgan kelin-kuyovlarga mo'ljallangan. Ushbu risolada asosiy e'tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila ma'rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma'lum bo'lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo'lmagan jihatlariga qaratilgan. V.Karimova oilaviy muhitda ma'naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga yoshlarning vaularning ota-onalari savodxonligini oshirish muhim rol egallashini aytib o'tgan.

Pedagogika fanlari doktori M.Mahmudova "Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi" monografiyasida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, maqola va tezislarida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlarini ilmiy va amaliy tomondan asoslab berishga harakat qilgan.

Olimaning ta'kidlashicha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga keyingi yillarning o'rtalarigacha e'tibor berilmay kelingan, farzandlarni oila va oilaviy hayotga tayyorlash, ayniqsa jinsiy tarbiya borasida suhbatlar o'tkazish ayb sanalib, ular oilaviy hayot, uning ostonasida bu murakkab jarayonga tayyorlanishi "yot" do'stlardan, boshqalardan eshitib, unga o'zini ko'r-ko'rona tarzda tayyorlash edi., yoshlar uchun tavsiyalar, qo'llanmalarning yetarli emasligi ham sabab bo'lganligi, yopirilib kirib kelayotgan, ovropalashib oilaviy hayotga doir axborot vositalari milliy turmush tarzimizga salbiy ta'sir etayotgani, yoshlarimizning bu sohada yot ta'sirlarga berilib ketayotgani ham oz bo'lsada namoyon bo'ladi,¹ - deb yozadi.

M.X.Fayziyevaning ilmiy tadqiqot ishida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha oilalarda inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilada shaxslararo munosabat tengligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari, oilaviy munosabatlarning gumanizatsiyalash imkoniyatlari hamda shaxslararo munosabatni muvofiqlashtirishning psixoterapevtik vositalari o'rganilgan.

¹ Mahmudova M. Xalq pedagogika va oila tarbiyasi. Monografiya. Samarqand. SamDChTI, 2003, 174-bet

G.Sultonova o'zining "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari" maqolasida oilada bolalarga tarbiya berish bilan bir qatorda ularni mustaqil oila qurishga tayyorlashdan iborat ekanligini ko'rsatgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilagan: Oilalar muqaddasligini asrab-avaylash; Yoshlarni, xususan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash; Oilada o'g'il bolalarni mustaqil oila qurishga tayyorlashlik pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish; Qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash jarayonlarini rejalashtirish va hayotga joriy etish; Oilada o'g'il bolalarni oila qurishga tayyorlashda tarbiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish; Oilada o'g'il bolalarga yoshligidan ularning oila xo'jaligi byudjetini yaratishda, oilada sog'lom ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik lozimligini yaratishda asosiy tayanch ekanligiga tayyorlab borish"² - lozimligini e'tirof etadi.

Faylasuf olim M.Xolmatova yoshlarni oilaga tayyorlashning axloqiy, jismoniy, estetik, ma'naviy, ruhiy tomonlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini sharqona urf-odatlarimizdan foydalanishning o'ziga xos tomonlarini falsafiy jihatdan o'rgangan.

Pedagogika fanlar doktori, professor Malika Inomovanning dissertasiya ishi, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyalarida mustaqillik sharoitida bolalarni ma'naviy axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda oilaning o'rnini, oilaviy tarbiyaning mazmunini, mohiyatini, metodlarini milliylik nuqtai-nazaridan tadqiq qilgan.

A.Munavvarov oila pedagogikasiga oid tadqiqot ishlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning saviyasi, turmush tarzi, xarakteri, kasbiy faoliyatlari bilan bog'liqligini ishonarli faktlar asosida tahlil qilgan.

Pedagogika fanlari nomzodi A.Muxsiyeva ilmiy-tadqiqot ishlarida oilada farzandlar tarbiyasida milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yetarlicha tahlil qilgan.

Abdulahat Usanov "Oila pedagogika" o'quv qo'llanmasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy an'analarning o'rnini tahlil qilishga harakat qilgan.

M.Mahmudova ta'kidlaganidek, talaba moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va ma'lum mutaxassislikka tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh bo'lib, ularni oilaviy hayotga tayyorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davr o'ziga xos xususiyatlar va ziddiyatlarga boy davr hisoblanadi. Chunki, talabalik davrida yuqori malakali mutaxassis, jamiyatning yetuk fuqarosi shakllanadi, fiziologik va ijtimoiy jihatdan balog'atga yetgan shaxs rivojlanadi. Xulosa qilib aytganimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi pedagog-psixolog olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan bo'lsada, ammo hayot bu jarayonni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustahkam oila ma'naviyati. A. Abdusamedov va boshq. T.: "Sano standart", 2012, 160 b.
2. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi.-Toshkent. 1997.
3. Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 188 b
4. Utepbergenov M. Qoraqalpoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari. Psixol.f.d. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. -T.,2018.

² Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari. // Uzluksiz ta'lim. №3, 2012, 50-53 b